

## XORAZM VILOYATI SHAROITIDA BOBCAT POMIDOR NAVINING HOSILDORLIGIGA O'G'IT ME'YORINI TA'SIRI.

*G'.M.Satipov - q.x.f.d prof Urganch Davlat Universiteti*

*G.Y.Atamuratova – Urganch Davlat Universiteti*

*Biologiya yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda Xorazm vohasi sharoitida pomidorni Bobcat navini hosildorligiga o'g'it me'yorining tasirini H-2274 naviga taqqoslab o'rganishni maqsad qilib 2024-yil bahor-kuz mavsumida ushbu izlanishni olib borib dala tajribalarini o'tkazilgan

**Kalit so'z:** pomidor, tomatdosh, urug', nav, iqlim, tuproq, o'g'itlash me'yori, ekish usuli, hosil, ko'chat, mahsulot

**Аннотация:** В данной статье мы ставим целью изучить влияние нормы удобрений на урожайность сорта помидоров Bobcat по сравнению с сортом H-2274 в условиях Хорезмской области. Исследования проводились в весенне-осенний период 2024 года с проведением полевых опытов.

**Ключевые слова:** помидор, томат, семена, сорт, климат, почва, норма удобрений, способ посадки, урожай, рассада, продукция.

**Kirish.** Pomidor (*Solanum lycopersicum*) o'zining oziqlanish qiymati va bozordagi talabga ko'ra, qishloq xo'jaligida muhim ekinlardan biridir. Xorazm vohasida pomidor yetishtirish uchun iqlim sharoitlari va tuproqning xususiyatlari o'ziga xosdir. Ushbu maqolada Bobcat pomidor navining hosildorligiga o'g'it me'yorining tasiri o'rganiladi va H-2274 naviga taqqoslanadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Tadqiqotning asosiy maqsadi Bobcat pomidor navining hosildorligini oshirish uchun optimal o'g'it me'yorini aniqlashdir. Tadqiqotda o'g'itlar va tuproqni qayta ishlash usullari hamda ekish usullari hisobga olinadi.

**Yerni ekishga tayyorlash.** Sabzavotchilikda yerni ekishga tayyorlash va ekish oldidan ishlov berish asosiy o'rinda turadi. Asosiy ishlov kuzda chuqur 9-35 sm li shudgorlash bo'lib, uning sifati va samarali imkon qadar barvaqtroq bajarilishiga ham bog'liq.

**O'g'itlash.** 2024-yil bahor-kuz mavsumida dala tajribalari o'tkazildi. Tajribalar Xorazm vohasining o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitlarida joylashgan maydonlarda amalga oshirildi. Pomidor tuproq unumdorligiga va o'g'itlarga talabchan ekin bo'lib, u tuproqdagi oziq moddalarni sarflashi bo'yicha sabzavot ekinlari orasida oldingi o'rinda turadi. O'zbekiston sabzavot-poliz ekinlari va kortoshkachilik ilmiy-tadqiqot institute ma'lumotlariga ko'ra gektariga 580-700s pomidor olish uchun 160-230 kg sof

azot va 70-90 kg sof fosfor solinadi. Shuning uchun albatta pomidor ekini o'g'itlanishi kerak. Bobcat va H-2274 navlari uchun bir nechta o'g'it me'yorlari sinovdan o'tkazildi. Har bir nav uchun hosildorlik, o'sish sur'ati va meva sifatiga e'tibor qaratildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Bobcat pomidor navining hosildorligi o'g'it me'yoriga bog'liq. Optimal o'g'it me'yorida Bobcat navining hosildorligi H-2274 ga nisbatan 20% ga yuqori bo'ldi. Bu natijalar o'g'itlarning pomidor hosildorligiga ta'sirini tasdiqlaydi.

Navlar	1-variant N-150, P-90, K-90			2-variant N-200, P-140, K-90		
	Dastlabki mevaning pishishi	Bitta meva og'irligi	Hosildorlik (s/ga)	Dastlabki mevaning pishishi	Bitta meva og'irligi	Hosildorlik (s/ga)
Bobcat	83 kun	200 g	300 s/ga	88 kun	245 g	330 s/ga
H-2274	91 kun	80 g	270 s/ga	95 kun	91 g	300 s/ga

**Muhokama.** Xorazm vohasi sharoitida Bobcat pomidor navini yetishtirishda to'g'ri o'g'itlash me'yorlari tanlash muhimdir. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, o'g'itlar nafaqat hosildorlikni, balki mevalarning sifatini ham yaxshilaydi. O'g'itlashning samaradorligini oshirish uchun tuproqning kimyoviy tarkibi va iqlim sharoitlarini hisobga olish zarur.

**Xulosa.** Bobcat pomidor navining hosildorligini oshirish uchun o'g'it me'yorini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, optimal o'g'it me'yori bilan hosildorlikni 20% ga oshirish mumkin. Bu natijalar pomidor yetishtirishda samarali agronomik usullarni qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G'.A Samatov, J.Y Yodgarov, Z.T Siddiqov: Issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish va yuritish. Toshkent 2007.
2. V.V Agiyev, Agrokimyo (Janubiy Rossiya aspekti): Universitet talabalari uchun darslik. Stavropol Davlat agrar universiteti, 2005.
3. Zuev Vladimer Ilich, Qodirxo'jayev Orif, Adilov Maxsud Mirvasitovich, Akromov Umidilla Ikramjanovich; Sabzavotchilik va polizchilik. Toshkent 2010.
4. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) Pomidor haqida.